



2023- yil yanvar-sentabr oylari  
uchun dastlabki ma'lumot



## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

Navoiy viloyati statistika boshqarmasi  
Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (99879) 223-50-43



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-sentabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 029,8 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning mos davriga nisbatan **115,7 %** ni tashkil etdi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **1 029,8** 115,7 %

(2022- y.: **890,3**)



**Saldo**

2023- y.: **- 31,6** (2022- y.: **- 17,1**)



### Eksport

2023- y.: **499,1** 114,3 %

(2022- y.: **436,6**)



Tovarlar: **498,2**



Xizmatlar: **0,9**



### Import

2023- y.: **530,7** 117,0 %

(2022- y.: **453,7**)



Tovarlar: **514,5**



Xizmatlar: **16,2**



**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



Navoiy viloyati jahonning **66** ta mamlakatlar bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (**29,8 %**), Rossiya Federatsiyasida (**16,2 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,7 %**), Qozog‘istonda (**5,1 %**) va Hindistonda (**4,7 %**) qayd etilgan.



### NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Fransiya	307,2	302,5	4,7	29,8
Rossiya Federatsiyasi	166,6	44,6	122,0	16,2
Xitoy Xalq Respublikasi	151,8	14,5	137,3	14,7
Qozog‘iston	52,3	14,4	37,9	5,1
Hindiston	48,3	40,2	8,1	4,7
Turkiya	46,3	23,9	22,4	4,5
Latviya	46,1	0,1	46,0	4,5
Yaponiya	42,3	-	42,3	4,1
Litva	21,2	7,3	13,9	2,1
Germaniya	20,9	-	20,9	2,0

*O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

So'ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.



Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston, Afg'oniston va Qirg'iz Respublikasi bilan TSA da so'ngi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'ngi uch yilda TSA Qozog'iston, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Fransiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Turkiya, Latviya, Yaponiya, Litva, Germaniya va Koreya Respublikasi hissasiga to'g'ri kelgan.



## NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Fransiya</b>	<b>2,6</b>	<b>62,2</b>	<b>307,2</b>
<i>Eksport</i>	-	60,4	302,5
<i>Import</i>	2,6	1,8	4,7
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>148,2</b>	<b>200,4</b>	<b>166,6</b>
<i>Eksport</i>	41,3	61,5	44,6
<i>Import</i>	106,9	138,9	122,0
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>141,8</b>	<b>176,1</b>	<b>151,8</b>
<i>Eksport</i>	71,3	47,1	14,5
<i>Import</i>	70,5	129,0	137,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>51,4</b>	<b>69,8</b>	<b>52,3</b>
<i>Eksport</i>	11,3	17,2	14,4
<i>Import</i>	40,1	52,6	37,9
<b>Hindiston</b>	<b>2,7</b>	<b>14,7</b>	<b>48,3</b>
<i>Eksport</i>	0,2	-	40,2
<i>Import</i>	2,5	14,7	8,1
<b>Turkiya</b>	<b>58,3</b>	<b>55,3</b>	<b>46,3</b>
<i>Eksport</i>	28,2	34,0	23,9
<i>Import</i>	30,1	21,3	22,4
<b>Latviya</b>	<b>0,3</b>	<b>15,1</b>	<b>46,1</b>
<i>Eksport</i>	-	9,8	0,1
<i>Import</i>	0,3	5,3	46,0
<b>Yaponiya</b>	<b>16,5</b>	<b>4,2</b>	<b>42,3</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	16,5	4,2	42,3
<b>Litva</b>	<b>76,0</b>	<b>15,1</b>	<b>21,2</b>
<i>Eksport</i>	12,0	9,8	7,3
<i>Import</i>	64,0	5,3	13,9
<b>Germaniya</b>	<b>11,2</b>	<b>13,5</b>	<b>20,9</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	11,2	13,5	20,9

Davomi

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>6,7</b>	<b>8,3</b>	<b>16,5</b>
<i>Eksport</i>	6,7	8,3	16,5
<i>Import</i>	-	-	-
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>19,7</b>	<b>17,1</b>	<b>16,5</b>
<i>Eksport</i>	0,1	-	0,1
<i>Import</i>	19,6	17,1	16,4
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>4,4</b>	<b>20,7</b>	<b>12,3</b>
<i>Eksport</i>	4,0	18,6	9,7
<i>Import</i>	0,4	2,1	2,6
<b>Daniya</b>	-	-	<b>10,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	9,2
<i>Import</i>	-	-	1,0
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>4,0</b>	<b>0,2</b>	<b>8,8</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	4,0	0,2	8,8
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>7,9</b>	<b>10,3</b>	<b>6,6</b>
<i>Eksport</i>	1,6	2,9	2,2
<i>Import</i>	6,3	7,4	4,4
<b>Chexiya Respublikasi</b>	<b>20,5</b>	<b>1,5</b>	<b>4,9</b>
<i>Eksport</i>	0,3	-	-
<i>Import</i>	20,2	1,5	4,9
<b>Belarus</b>	<b>6,3</b>	<b>2,3</b>	<b>4,0</b>
<i>Eksport</i>	1,2	1,2	3,1
<i>Import</i>	5,1	1,1	0,9
<b>Tojikiston</b>	<b>1,8</b>	<b>5,0</b>	<b>3,9</b>
<i>Eksport</i>	1,5	5,0	3,8
<i>Import</i>	0,3	-	0,1
<b>Avstriya</b>	<b>0,4</b>	<b>1,4</b>	<b>3,9</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,4	1,4	3,9



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1 029 754,2</b>	<b>115,7</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	648 337,9	134,6	63,0
Zarafshon sh.	6 692,2	87,8	0,6
G'ozg'on sh.	4 387,9	4,6 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	253 541,0	90,4	24,6
Konimex t.	2 157,6	6,3 b.	0,2
Qiziltepa t.	49 867,1	83,3	4,8
Navbahor t.	33 469,4	110,5	3,3
Nurota t.	8 029,7	120,3	0,8
Tomdi t.	1 046,7	52,7	0,1
Uchquduq t.	7 523,2	56,4	0,7
Xatirchi t.	14 166,2	2,3 b.	1,4
Bo'linmaydigan hajm	535,3	-	0,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Navoiy sh.**

**648 337,9**

**Karmana t.**

**253 541,0**

**Qiziltepa t.**

**49 867,1**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



**Tomdi t.**

**1 046,7**

**Konimex t.**

**2 157,6**

**G'ozg'on sh.**


**4 387,9**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **63,0** % ulush bilan **648 337,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,1** % ulush bilan **1 046,7** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



Tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yil yanvar-sentabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **23,6** % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-sentabr oylarida 2022- yilning shu davriga nisbatan **141,3** % ni, jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi **76,4** % ni tashkil etdi.






Hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksporti bilan shug'ullanuvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksport hajmi **499,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **114,3** % ni tashkil etdi.



### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr, ulushi % da)



Eksport tarkibida asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**70,7** %), sanoat tovarlari (**13,5** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,7** %) hissasiga tog'ri kelmoqda.



## NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI


(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
	2022	2023		
<b>Jami eksport</b>	<b>436,6</b>	<b>499,1</b>	<b>114,3</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,2	23,3	177,3	4,7
Ichimliklar va tamaki	0,1	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	34,3	21,6	63,0	4,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,9	16,1	2,7 b.	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	0,7	2,1 b.	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	277,3	352,8	127,2	70,7
Sanoat tovarlari	89,1	67,3	75,6	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,1	4,6	33,7 b.	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	14,3	11,8	81,9	2,4
Xizmatlar	2,0	0,9	46,2	0,2

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida 2022- yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2022- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunalari, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, hayvon va o'simliklar moylari, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlarning eksport tarkibida o'sish kuzatildi.




### NAVOIY VILOYATINING EKSPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)



Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-sentabr oylarida eksport hajmi **499,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida MDH mamlakatlariga **79,0** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **15,8** % ini tashkil etdi.



### NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-sentabr, % da)



2023- yilning yanvar-sentabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Fransiya (eksport umumiy hajmining **60,6** %), Rossiya Federatsiyasi (**8,9** %), Hindiston (**8,1** %), Turkiya (**4,8** %), Afg'oniston (**3,3** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**2,9** %) va Qozog'iston (**2,9** %) saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **91,5** % ni tashkil etmoqda.





## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-sentabr, yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'rni
	2022	2023		
Fransiya	60 427,3	302 548,8	5,0 b.	1
Rossiya Federatsiyasi	61 523,5	44 640,6	72,6	2
Hindiston	-	40 228,8	-	3
Turkiya	34 018,2	23 925,0	70,3	4
Afg'oniston	8 253,5	16 493,1	199,8	5
Xitoy Xalq Respublikasi	47 139,1	14 496,7	30,8	6
Qozog'iston	17 205,4	14 415,4	83,8	7
Qirg'iz Respublikasi	18 617,9	9 681,6	52,0	8
Daniya	-	9 155,3	-	9
Litva	9 828,2	7 304,1	74,3	10
Tojikiston	4 994,8	3 784,4	75,8	11
Belarus	1 220,1	3 093,3	2,5 b.	12
Eron Islom Respublikasi	2 875,1	2 173,2	75,6	13
Turkmaniston	22 809,8	1 903,4	8,3	14
Italiya	91,3	1 764,8	19,3 b.	15
Ozərbayjon	1 015,4	836,2	82,3	16
Polsha	1 595,3	530,4	33,2	17
Pokiston	351,0	461,2	131,4	18
Ukraina	404,8	380,6	94,0	19
Armeniya	392,1	223,2	56,9	20

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Jumladan, hisobot davrida tovarlar va xizmatlar eksportida ishtirok etgan davlatlar soni **38** tani tashkil etdi.



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>499 015,1</b>	<b>114,3</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	381 997,8	124,1	76,6
Zarafshon sh.	1 731,5	118,2	0,3
G'ozg'on sh.	1 794,8	3,7 b.	0,4
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	49 427,3	93,1	9,9
Konimex t.	520,3	2,2 b.	0,1
Qiziltepa t.	31 554,2	74,7	6,3
Navbahor t.	18 608,0	88,5	3,7
Nurota t.	5 449,2	125,1	1,1
Tomdi t.	161,2	19,1	0,03
Uchquduq t.	677,6	86,1	0,1
Xatirchi t.	6 872,0	176,8	1,4
Bo'linmaydigan hajm	221,2	-	0,1

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Navoiy sh. 381 997,8

Karmana t. 49 427,3

Qiziltepa t. 31 554,2

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Tomdi t. 161,2

Konimex t. 520,3

Uchquduq t. 677,6

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **76,6** % ulush bilan **381 997,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,03** % ulush bilan **161,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORT DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	4,6	3,0	4,7
Ichimliklar va tamaki	-	0,01	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	6,3	7,8	4,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	1,4	3,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	62,7	63,5	70,7
Sanoat tovarlari	20,3	20,4	13,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,2	0,03	0,9
Turli xil tayyor buyumlar	2,8	3,3	2,4
Xizmatlar	2,6	0,5	0,2

2023- yil yanvar-sentabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'ngi uch yil davomida eksport tarkibi dinamikasida kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlari ulushi **8,0** punktga oshib **70,7** % ni, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar ulushi **2,7** punktga oshib **3,2** % ni tashkil etdi.

## NAVOIY VILOYATINING AYRIM DAVLATLAR BILAN EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)

XSST tarkibi	Fransiya		Rossiya Federatsiyasi		Hindiston		Turkiya	
	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Jami eksport</b>	<b>60,4</b>	<b>302,5</b>	<b>61,5</b>	<b>44,6</b>	-	<b>40,2</b>	<b>34,0</b>	<b>23,9</b>
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	-	-	0,6	0,1	-	-	0,3	-
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	-	-	23,5	17,5	-	-	1,6	1,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	-	-	0,4	0,1	-	-	4,8	6,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	-	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	60,4	302,4	0,9	2,0	-	40,2	-	-
Sanoat tovarlari	-	-	25,1	14,0	-	-	26,8	15,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	-	-	-	3,9	-	-	-	-
Turli xil tayyor buyumlar	-	0,1	10,1	6,5	-	-	-	-
Xizmatlar	-	-	0,9	0,5	-	-	0,5	-




Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar hamda sanoat tovarlari kiradi.





## XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)




Xizmatlar eksporti hajmi **0,9** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **0,2** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **46,2** % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (**52,9** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**30,1** %) va transport xizmatlari (**17,0** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023- yil yanvar-sentabr, ming AQSH dollari)

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **7 605,3** ming AQSH dollar qiymati **11 435,2** tonna meva-sabzavot eksport qilingan hamda 2022- yilning mos davriga nisbatan **117,8** % ni tashkil qildi. Shundan salmog'i yirik hududlarda meva-sabzavot mahsulotlari va ularni qayta ishlash eksporti hajmi Xatirchi tumanida **3 436,4** ming AQSH dollarini, Qiziltepa tumanida **1 971,7** ming AQSH dollarini, Karmana tumanida **770,5** ming AQSH dollarini va Navbahor tumanida **550,5** ming AQSH dollarini tashkil etmoqda.





## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-sentabr)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
Xitoy Xalq Respublikasi	3 234,6	3 288,5	43,2
Qozog'iston	6 703,1	3 021,4	39,7
Pokiston	117,9	461,0	6,1
Litva	541,3	259,8	3,4
Estoniya	297,9	128,7	1,7
Latviya	298,3	103,3	1,4
Eron Islom Respublikasi	90,0	102,0	1,3
Rossiya Federatsiyasi	57,1	80,3	1,1
Isroil	11,0	62,6	0,8
Aljir	36,0	52,3	0,7
Koreya Respublikasi	48,0	45,4	0,6

\* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-sentabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Xitoy Xalq Respublikasi (**43,2 %**), Qozog'iston (**39,7 %**) va Pokiston (**6,1 %**) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2023- yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi **530,7** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **117,0** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**46,1** %), sanoat tovarlari (**27,4** %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**12,4** %) ga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi **514,5** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **16,2** mln. AQSH dollariga yetdi.



## NAVOIY VILOYATINING XSST BO‘YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-sentabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O‘shish sur‘ati, % da	Umumiy hajmga nis-batan. % da
	2022	2023		
<b>Jami import</b>	<b>453,7</b>	<b>530,7</b>	<b>117,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	11,0	22,7	2,1 b.	4,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	10,6	10,7	100,6	2,0
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	9,5	1,9	19,9	0,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1,4	4,4	3,1 b.	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	78,3	65,8	84,2	12,4
Sanoat tovarlari	139,8	145,3	103,9	27,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	161,5	244,7	151,5	46,1
Turli xil tayyor buyumlar	32,0	19,0	59,6	3,6
Xizmatlar	9,6	16,2	169,1	3,0




Importning eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**46,1 %**), sanoat tovarlari (**27,4 %**), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**12,4 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,3 %**) hissasiga to'g'ri keladi.

Import qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiy hajmining tuzilishini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, 2022- yilning mos davriga nisbatan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar (**3,1 barobar**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**2,1 barobar**), xizmatlar (**69,1 %**), mashinalar va transport asbob-uskunalar (**51,5 %**), sanoat tovarlari (**3,9 %**) va nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**0,6 %**) o'sgan.



### NAVOIY VILOYATINING IMPORT HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari)




Navoiy viloyatida 2023- yil yanvar-sentabr oylarida import hajmi **530,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)

MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy davlatlar bilan import ulushining dinamikasi joriy davrda ushbu ko'rsatkich **31,0** va **69,0** % ni tashkil etdi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Latviya, Yaponiya, Qozog'iston, Turkiya va Germaniya) jami importning **80,8** % ini tashkil qiladi, bu **428,8** mln. AQSH dollarini tashkil etadi.



### NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-sentabr, % da)





## NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yanvar-sentabr, yillar kesimida)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2022	2023		
Xitoy Xalq Respublikasi	128 987,7	137 270,7	106,4	1
Rossiya Federatsiyasi	138 897,9	121 990,7	87,8	2
Latviya	1 689,2	45 952,0	27,2 b.	3
Yaponiya	4 193,3	42 343,3	10,1 b.	4
Qozog'iston	52 607,6	37 931,8	72,1	5
Turkiya	21 265,5	22 419,5	105,4	6
Germaniya	13 542,6	20 931,8	154,6	7
Koreya Respublikasi	17 090,4	16 426,7	96,1	8
Litva	5 299,6	13 903,0	2,6 b.	9
Buyuk Britaniya	235,0	8 802,6	37,5 b.	10
Hindiston	14 734,7	8 109,0	55,0	11
Chexiya Respublikasi	1 541,2	4 856,7	3,2 b.	12
Fransiya	1 814,8	4 692,2	2,6 b.	13
Eron Islom Respublikasi	7 361,9	4 404,5	59,8	14
Avstriya	1 449,2	3 889,1	2,7 b.	15
Kanada	3 327,7	2 859,1	85,9	16
Finlyandiya	1 840,2	2 811,9	152,8	17
Polsha	856,3	2 723,9	3,2 b.	18
Qirg'iz Respublikasi	2 056,5	2 561,7	124,6	19
Gonkong	666,3	2 511,9	3,8 b.	20

2023- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bo'yicha **56** ta davlatlar bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



## NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-sentabr)

	Hajm Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>530 739,1</b>	<b>117,0</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	266 340,1	153,1	50,2
Zarafshon sh.	4 960,7	80,6	0,9
G'ozg'on sh.	2 593,1	5,7 b.	0,5
<i>tumanlar:</i>			
Karmana t.	204 113,7	89,8	38,4
Konimex t.	1 637,3	16,4 b.	0,3
Qiziltepa t.	18 312,9	104,0	3,4
Navbahor t.	14 861,4	160,6	2,8
Nurota t.	2 580,5	111,3	0,5
Tomdi t.	885,5	77,5	0,2
Uchquduq t.	6 845,6	54,6	1,3
Xatirchi t.	7 294,2	3,2 b.	1,4
Bo'linmaydigan hajm	314,1	-	0,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Navoiy sh.**

**266 340,1**

**Karmana t.**

**204 113,7**

**Qiziltepa t.**

**18 312,9**

**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



**Tomdi t.**

**885,5**

**Konimex t.**

**1 637,3**

**Nurota t.**

**2 580,5**

Viloyatning import tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **50,2 %** ulush bilan **266 340,1** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Tomdi tumani **0,2 %** ulush bilan **885,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI DINAMIKASI

(yanvar-sentabr, % da)

XSST tarkibi	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,2	2,4	4,3
Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	0,9	2,3	2,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,3	2,1	0,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	0,3	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	11,5	17,3	12,4
Sanoat tovarlari	16,0	30,8	27,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	55,8	35,6	46,1
Turli xil tayyor buyumlar	6,6	7,1	3,6
Xizmatlar	5,6	2,1	3,0



2023- yil yanvar-sentabr oylarida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, mashinalar va transport asbob-uskunalarida 2022- yilning mos davriga nisbatan importning ulushi **35,6 %** dan **46,1 %** gacha, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlarda importning ulushi **2,4 %** dan **4,3 %** gacha, xizmatlarda esa **2,1 %** dan **3,0 %** gacha o'sdi.






## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-sentabr, ulushi, % da)

2023- yil yanvar-sentabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **16,2** mln. AQSH dollarini yoki jami import hajmining **3,0** % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **169,1** % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**56,4** %), safarlar (turizm xizmatlari) (**0,2** %) va boshqa xizmatlar (**43,4** %) dan iborat bo'ldi.



Shu bilan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib borayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shuningdek, bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.